

## INTERPRETATION OF THE MOTHERLAND IN THE WORKS OF FEINBERG AND MUHAMMAD YUSUF

*Olimova Shahina Batirjon kizi**Student of the Uzbek State University of World Languages*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mohir tarjimon hamda shoir Aleksandr Faynberg va taniqli shoir Muhammad Yusuf she'riyatida Vatan konseptining badiiy talqini qiyosiy tahlil qilinadi. Ikkala shoir lirikasida Vatan obrazi nafaqat geografik hudud, balki kindik qoni to'kilgan qadrli Vatan, ruhiy tayanch va insonparvarlik, mehmondo'stlik kabi sifatning yaqqol namoyon bo'lishi mahorat bilan tasvirlanadi. Tahlil jarayonida Faynberg va Muhammad Yusufning she'rlaridagi Vatan tasviridagi o'xshash hamda farqli jihatlar ko'rib chiqiladi hamda milliy va umuminsoniy jihatning uyg'unligi tahlil etiladi.

**Abstract.** This article provides a comparative analysis of the artistic interpretation of the concept of the Motherland in the poetry of the talented translator and poet Alexander Feinberg and the famous poet Muhammad Yusuf. In the lyrics of both poets, the image of the Motherland is skillfully depicted not only as a geographical territory, but also as a precious homeland where the umbilical cord blood was shed, as well as a clear manifestation of such qualities as spiritual support and humanity, hospitality. In the process of analysis, the similarities and differences in the image of the Motherland in the poems of Feinberg and Muhammad Yusuf are considered, and the harmony of national and universal aspects is analyzed.

**Аннотация.** В данной статье представлен сравнительный анализ художественной интерпретации концепции Родины в поэзии талантливого переводчика и поэта Александра Файнберга и известного поэта Мухаммада Юсуфа. В лирике обоих поэтов образ Родины искусно изображен не только как географическая территория, но и как драгоценная родина, где пролилась пуповинная кровь, а также как явное проявление таких качеств, как духовная поддержка и гуманность, гостеприимство. В процессе анализа рассматриваются сходства и различия в образе Родины в поэзии Файнберга и Мухаммада Юсуфа, а также анализируется гармония национальных и универсальных аспектов.

**Kalit so'zlar:** Vatan tushunchasi, umuminsoniy va madaniy uyg'unlik, badiiy va ramziy obraz, lirik qahramon, qiyosiy tahlil.

**Keywords:** Concept of homeland, universal and cultural harmony, artistic and symbolic image, lyrical hero, comparative analysis.

**Ключевые слова:** концепция родины, всеобщая и культурная гармония, художественно-символический образ, лирический герой, сравнительный анализ.

**Kirish.** Badiiy adabiyotda Vatan mavzusi doimo markaziy o'rinda bo'lib kelgan. Turli davr va davlatda yashagan shoir-u ijodkorlar Vatanni hududiy makon emas, balki tarix, xotira, milliy o'zlik va urf-odatlar mujassam etgan tushuncha sifatida talqin qilgan. Tarixga nazar tashlasak, g'azal mulkinging sultoni Mir Alisher Navoiy Vatanni adolat va komillik maskan deya ta'riflagan. Zamonaviy

adabiyotimizda esa bu tushuncha o'zgacha dunyoqarash va fikr bilan ifodalanadi. Muhammad Yusuf ijodida Vatan ona tuproq, kindik qonimiz to'kilgan joy sifatida tasvirlansa, Aleksandr Faynberg she'riyatida Vatan ma'naviy makon, inson ruhi taskin oladigan, qadriyatlarini yuksaltiruvchi joy deb talqin qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi- Aleksandr Faynberg va Muhammad Yusuf ijodida Vatan talqinini bir-biriga o'xshash hamda farqli jihatlarini aniqlash va ularni qiyosiy tahlil qilish.

### Asosiy qism.

#### 1. Aleksandr Faynberg she'riyatida Vatan- ruhiy tayanch maskani.

Aleksandr Faynberg ijodida Vatan obrazi ko'pincha falsafiy qarashlar bilan ifodalanadi. Shoir asl millati rus bo'lsada, Toshkentda tug'ilib o'sgan, shu tufayli unda Toshkentga bo'lgan mehr juda kuchli. Shoir Toshkentni nafaqat tug'ilib, o'sgan maskan sifatida, balki ruhiy kamolot topadigan ma'naviy makon sifatida tasvirlaydi. Uning she'rlarida Vatanning keng dalalari, tabiat manzaralari, chiroyli uylar oddiy insonlar mehnati orqali yaratilgani tasvirlanadi. Shoirning „Vatan“ she'riining ilk bandida Vatanning portreti shunday chiziladi:

Quyoshli, to'rtburchak dalalardan to

Tizma tog'largacha cho'zilgan Vatan –

Yo'llarning girdida bo'lib girgitton

Gumbazdek teraklar turarlar qator.

Shoir Vatanini uzoq kezadi, urush bo'lgani tufayli ba'zan uylar yaxshi ta'mirdan chiqmagan, loysuvoq ahvolda edi. Ammo o'zbek xalqi boshqalar o'zining mehmondo'stligi bilan ajralib turashi ularning eshigi har doim begonalar uchun ham ochiq ekanidan bilsa bo'ladi. Ikkinch jahon urushi davrida Rossiyadan O'zbekistonga millionlab bolalar olib kelingan, o'sha paytda mard o'zbek xalqi o'zi qiyin ahvolda bo'la turib, bolalarni asrab olgan, uyidan joy berib, o'z farzandidek voyaga yetkazgan. Shoahmad Shomammedov ham haqiqiy insonparvarlik namunasini ko'rsatib urush yillarida Toshkentga evakuatsiya qilingan yahudiy bolalarni o'z uyiga olib, ularni asrab-avaylab, mehr bergan:

Dalalarni kezdim qadamma-qadam,

Teodolitl ko'tarib, o'lchadim tanob.

Loysuvoq uylarda simirdim chalob,

Eshiksiz hovlilar ochiqdir mudom.

O'zbek xalqining mehmondo'st, mehribonligi Faynberg tomonidan yuksak e'tirof etilgan. Insonlar o'rtasidagi iliq munosabat, mehr-oqibat doim Aleksandr Faynbergni hayratda qoldirgan hamda Vatanga bo'lgan muhabbatini yanada yuksaltirgan.

Mushfiq yurt. Shu yerda nasl-u nasabim –

O‘zbekistondadir xokim, turobim.

Hoy, Yevropa! Seni tanimayman ham.

Mag‘rur parvoz etar burgut falakda.

O‘t tishladim. Labda sho‘r ko‘z yosh. Bu dam

ham dardni, ham baxtni tuydim yurakda.

Vatan- Faynberg she‘riyatida bag‘rikenglik, madaniyatlar uyg‘unligi, mehmondo‘stlik, insonparvarlik mujassam bo‘lgan makon. Shoir Vatan bilan iliq munosabatda ruhiy aloqa o‘rnatadi, bu aloqada samimiyat va teran tafakkur ham mavjud. She‘r davomida Vatan tushunchasi naqadar keng ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

2. Muhammad Yusuf ijodida Vatan- ona zamin va milliy ruh timsoli.

Muhammad Yusuf ijodida Vatan obrazi yanada kengroq xalqona va emotsional tus oladi. Shoir uchun o‘zi kindik qoni to‘kilgan tuproq, ona zamin, millat sha‘ni va g‘ururidir. Uning she‘rlarida Vatan muhabbat bevosita, samimiy hamda yurakdan chiqqan ohangda jo‘sh uradi. Muhammad Yusuf lirikssida Vatan tushunchasi tarix bilan chambarchas bog‘liq, u „Vatanim“ she‘rida shunday yozadi:

Sen Xo‘jandsan,

Chingizlarga

Darvozasin ochmagan,

Temur Malik orqasidan

Sirdaryoga sakragan.

Muqannasan qorachig‘i

Olovlarga sachragan.

Shiroqlarni ko‘rgan cho‘pon

Cho‘lig‘imsan Vatanim.

She‘rning markazida Vatanga cheksiz muhabbat va fidoiylik g‘oyasi turadi. Lirik qahramon o‘zini turli xizmatlarga tayyor ekanini aytadi, bu orqali esa Vatan oldidagi burchni eng oliy qadriyat sifatida ko‘rsatadi.

O'g'lim desang, osmonlarga

G'irotda bo'lib uchgayman.

Chambil yurtga Alpomishga

Navkar bo'lib tushgayman.

G'irotda „Alpomish“ dostonidagi afsonaviy tulpor. Shoir o'zini g'irotda qiyoslab, tezkorlik, qudrat va sadoqat ramzini yaratadi. Bu qiyoslash orqali lirik qahramon Vatanni himoya qilishga shay ekanligini ko'rsatadi. Alpomish- o'zbek xalq dostonidagi bosh qahramon. Adabiyotsevarlar uchun Alpomish haqiqiy mardlik va Vatanga bo'lgan sadoqat timsolidir. She'rdagi lirik qahramon o'zini Vatanni himoya qilish uchun Alpomishga navkar bo'lib tushishga ham tayyor ekanini bitadi. Bu haqiqiy fidokorlikning eng yuqori darajasidir. She'ning eng ta'sirli misrasi: „Padarkushdan pana qilib, Ulug'beging quchgayman“. Bilamizki, Mirzo Ulug'bek- ilm-fan homiysi, buyuk alloma. Tarixda bo'lgan buyuk fojiga ishora qilib, shoir Ulug'bekni padarkushdan himoya qilishga ishora qiladi. Muhammad Yusuf she'rida turli badiiy vositalardan mahorat bilan foydalangan. „Osmonda uchgayman“ misrasi bilan mubolag'a qilgan bo'lsa, G'irotda, Alpomish, Ulug'bek timsollari orqali ramziylikni ifodaladi. Muhammad Yusufning ushbu she'ri o'zbek xalqi uchun haqiqiy Vatan madhiyasi sifatida kuylanadi. „Vatanim“ she'ri turli qo'shiqlar tomonidan kuyga solinib, qo'shiq shaklida ijro etilgan.

**Xulosa.** Tahlil shuni ko'rsatadiki, Aleksandr Faynberg va Muhammad Yusuf ijodida Vatan konsepti turli poetik va badiiy vositalar bilan ifodalansa-da, mohiyatan bir maqsadga xizmat qiladi. Ikkala shoir ham inson qalbida Vatanga muhabbat, sadoqat va ma'naviy mas'uliyat tuyg'usini she'rdan ifodalagan. Faynberg she'riyatida Vatan- ma'naviy makon, umuminsoniy qadriyat timsoli sifatida talqin qilinsa, Muhammad Yusuf lirikasida u milliy ruh, ona zamin hamda xalq qalbining ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan ikki ijodkorning poetik qarashlari o'zaroi uyg'unlashgan holda o'zbek adabiyotida Vatan konseptining boy va rang-barang talqinini yarata oldi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Aleksandr Faynberg. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2010.
2. Muhammad Yusuf. Saylanma. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2012.
3. Muhammad Yusuf. Vatanim (she'r). – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 1998.
4. Aleksandr Faynberg. Vatan (she'r). – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985.
5. Alisher Navoiy. Xamsa. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2006.
6. Karimov B. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: Akademiya nashri, 2015.

7. Qo‘chqorov R. Badiiy tahlil nazariyasi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2014.

8. Yo‘ldoshev Q. O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyoti tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.

